



BUYUK AJDODLARIMIZNING KOMIL INSONNI TARBİYALASHDA TIL ODOBINING TUTGAN O'RNI HAQIDAGI QARASHLARI

Xolmirzayeva Sayyora Shukurovna

Toshkent davlat agrar universiteti

*“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası
mudiri, filologiya fanlari nomzodi,
dotsent*

kakhramonazizov6@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XI-XIV asrlarda yashagan buyuk ajdodlarimizning asarlarida til odobi, nutq madaniyati haqidagi qarashlari to'g'risida ma'lumot berilgan. Til odobi haqidagi qarashlarimiz ma'naviyatimizning ajralmas qismi sifatida qadimiy tarixga ega ekanligi misollar orqali ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: komil inson, til odobi, maqol, so'z, tarbiya, nutq, tilshunoslik, xalq, ma'naviyat, ma'rifat.

Аннотация: В данной статье представлена информация о взглядах наших великих предков, живших в XI-XIV веках, на речевой этикет и культуру речи. Кроме того, на примерах показано, что наши взгляды на речевой этикет имеют древнюю историю как неотъемлемая часть нашей духовности.

Ключевые слова: осознанный человек, языковой этикет, пословица, слово, образование, речь, языкознание, человек, духовность, просвещение.

Abstract: This article provides information about the views of our great ancestors, who lived in the 11th-14th centuries, on speech etiquette and speech culture. In addition, examples show that our views on speech etiquette have an ancient history as an integral part of our spirituality.

Key words: conscious individual, language etiquette, proverb, word, education, speech, linguistics, person, spirituality, enlightenment.

Til odobi insonning ma'naviyati, axloqiy jihatlari, ma'rifatini belgilab beruvchi asosiy mezondir. Qadimgi davrda nutq madaniyati kurtaklari ko'proq til odobi (nutq odobi) tarzida namoyon bo'lgan. Milliy qadriyatlarimizning asoslaridan bir ham tilga bo'lgan munosabatdir. Til odobi insonning ta'lim-tarbiyasi, madaniylik darajasi, butun borlig'i, ichki dunyosining ko'zgusi sifatida namoyon qiladi. Bejiz xalq maqollarida ham “Til – tig‘dan o‘tkir”, “Odam so‘zi bilan sinalar, osh tuzi bilan”, “Yaxshi so‘z boldan shirin” deyilmagan. Hadislarda ham til odobi haqida aytilgan fikrlarni yodga olsak:

1. “Assalomu alaykum” denglar. Bu – sizga tinchlik tilayman deganidir. Tinchlik esa yer yuzidagi eng buyuk ne'matdir.





2. Rost gapiringlar, garchi rostlikda halokat bor deb bilsalaring ham, chunki aslida najot rostlikdadir. Yolg'on gapirmanglar, garchi yolg'on gapda najot bor deb bilsalaring ham, chunki aslida unda halokat bordir.

3. Kishi o'z bolasiga odobdan ko'ra afzalroq narsa ado etolmaydi.

Eng qadimgi yozma obidamiz "Avesto"da ham til, nutq, nutq odobi, tilga munosabat, tilni ulug'lashga oid fikrlar mavjud. Unda aytilishicha, o'sha davr dini va ma'naviyati asosini e'tiqod, ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amal tushunchalari tashkil etgan. Ezgu so'z tushunchasiga nutq odobi va madaniyatiga amal qilish, kishilarga manfaat keltiruvchi, ta'sir qiluvchi va tarbiyalovchi vosita sifatida qaralgan. Qadimiy turkiy yozma yodgorliklardan "Kul Tegin yodgorligi"dagi kichik yozuvda tabg'achlarning chuchuk so'z ekanligi haqidagi gapiriladi va ular o'zining shirin muomalasi bilan yiroq ellarni o'ziga yaqinlashtirishi ta'kidlanadi hamda dushmanning shirin tiliga ishonib aldanish kerakmasligi aytiladi¹.

Buyuk allomalardan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiylar nutq odobi masalalariga, umuman, nutqqa jiddiy e'tibor berishga da'vat etish bilan birga tilga, lug'atga, grammatika va tilshunoslikka bag'ishlangan asarlar yozdilar. Bu asarlarning har biri alohida-alohida tadqiqotlarni talab etadi. Ming yillar muqaddam bitilgan allomalarimizning til odobi haqidagi asarlaridagi qarashlari, fikrlari komil insonni tarbiyalashga, ularni to'g'ri yo'lga solishga, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk qilishga qaratilgandir. XI-XIV asrlarda ijod qilgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat-ul haqqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" kabi asarlarida til va nutq, nutq odobi, nutq san'ati borasida aytilgan fikrlari, to'plagan ma'lumotlari turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi hisoblanadi.

XI asrning qomusiy olimi Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida til madaniyati, so'z odobi masalalari yoritilishini ikki holatga ajratish mumkin:

1. XI asrgacha paydo bo'lgan til odobi haqidagi ma'lumot va maqollarni to'plash.

2. Ushbu masalalar bo'yicha bayon etgan shaxsiy mulohazalari.

¹ Qayumov A. Qadimiyat obidalari. T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. 135 b.





Birinchi holat qanchalik ahamiyat kasb etsa, ikkinchisi ham undan kam o'rin egallamaydi. Asarda keltirilgan “Ardam boshi – til” degan maqoldagi “ardam” so'zini Mahmud Qoshg'ariy “odob, axloq, tarbiya” deb izohlaydi. Demak, maqol “Odobning boshi - til” degan ma'noni bildirib, XI asr og'zaki muomalasida turkiy xalqlarning nutq madaniyatiga, til odobiga nechog'li e'tibor berilganligining yana bir namunasidir. Chunki insonning ichki olami, uning ma'naviy qiyofasi o'zaro fikrlashganda ko'rinadi. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida keltirilgan maqollar va o'g'itlardan namunalar:

1. Til bilan bog'langan tish bilan yechilmas.

2. Bilag'on odamlarning so'z, nasihatlaridan foydalan, chunki yaxshi so'z ta'sir qilgach, dilga joylashadi.

3. Biror kishi senga kulib qarasa, sen ham unga kulgan yuz bilan boq, shirin so'z va yoqimli muomala qil, tilingni tiygin.

4. Ko'p so'zni tushunib bo'lmaydi, qattiq toshni yiqitib bo'lmaydi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarining muqaddimasidagi boblardan biri “Til erdamin asg'in, munlarin so'zlayur”, ya'ni “Tilning fazilati, foyda-zararlari haqida so'zlaydi” deb nomlangan.²

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida keltirilgan til odobi haqidagi fikrlaridan namunalar:

1. Til go'yoki qafasdagi arslonday gap. Unga erk berilsa, kishining boshini yeydi.

2. So'zni shunday qo'llash lozimki, u ko'r odam uchun ham ko'z bo'lsin.

3. Har bir so'zni o'ylab, qadrlab aytadigan odam elda ham aziz bo'ladi.

4. Bilimlining so'zi go'yoki oqib turgan suv kabidir. Suv oqizilsa, yerda anvoyi ne'matlar unib chiqadi.

5. So'zingni avaylab asra, toki boshing ketmasin. Tilingni avaylab asra, toki tishing sinmasin.

Qadimdan Sharq xalqlarida so'zga alohida e'tibor bilan qarash hukm surganligini Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq” asarida ham ko'rishimiz mumkin:³ Namunalar:

1. Og'iz va tilning bezagi to'g'ri so'zdir, so'zni to'g'ri so'zla, dilingni bezagin.

² To'xliyev B. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari. T., “O'zbekiston” nashriyoti. 1991. 25 b.

³ Qadimiy hikmatlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1987. 418 b.





2. Yolg'on so'z kasallik kabidir, chin so'z shifodir.

3. O'ylab so'zlagan kishining so'zi to'g'ridir, o'rinsiz ko'p vaysagan til shafqatsiz yovdir.

4. Yolg'on kishidan o'zingni uzoq tut, umringni sen to'g'rilik bilan kechir.

5. Siring o'zingda saqlanib, singib turmagach, u do'stingda saqlanmaydi, buni yaxshilab o'ylab ko'r.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk so'z ustasi Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida til odobi va so'zga munosabat haqidagi fikrlaridan ayrimlarini keltirsak:⁴

1. Garchi tilni tiyish – dilga mehnatdir, ammo so'zni yoyish boshga ofatdir.

2. So'z borki, eshituvchining taniga jon kirg'izadi, so'z borki, gapiruvchining boshini yelga uchiradi.

3. Aytish kerak bo'lgan gapni unutma, aytmaydigan yerda o'zingni so'zamol tutma.

4. Tiling bilan dilingni bir tut, til bilan dil bir kishining aytgan so'zi.

5. So'zni ko'ngilda pishitmaguncha tilga olma, dilingda bor gapning hammasini tilingga keltirma.

6. Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.

Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiylarning asarlarida til odobi, muomala madaniyatiga oid kuchli an'analarga amal qilinganligini va ularni doimiy ravishda yanada boyitib, yuksaltirib borilganligini ko'rish mumkin. Til odobi haqidagi qarashlarimiz, ma'naviyatimizning ajralmas qismi sifatida qadimiy tarixga egaligi xalqimizning doim komillikka, yetuklikka intilganidan dalolat beradi. Shubhasiz, buyuk ajdodlarimizning o'lmas asarlaridagi bizga meros qilib qoldirib ketgan til odobi, nutq madaniyati haqidagi pand-nasihatleri, o'gitlari, hayotiy xulosalari yana asrlar davomida yoshlarni tarbiyalaydi, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, ularning eng yaqin maslahatgo'yiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy Mahbub ul-qulub. Muhokamat ul-lug'atayn. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi. 2021 y. 185 b.

⁴ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Muhokamat ul-lug'atayn. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2021 y. 185 b.





2. Qadimiy hikmatlar. T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987 y. 418 b.
3. To'xliyev B. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari. T., "O'zbekiston" nashriyoti. 1991 y. 25 b.
4. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1972 y. 135 b.
5. Xolmirzayeva S. "Nutq madaniyati va notiqlik". T., Uslubiy qo'llanma. ToshDAU tahrirat-nashriyot bo'limi. 2018 y. 15 b.

